

FARG'ONA AGROTSENOZLARI PARVONASIMON KAPALAKLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XO'JALIK AHAMIYATI

Abdikaxarov Bekzod Dilmurod o'g'li
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: *Agrotsenozlari parvonasimon kapalaklarining bioekologik xususiyatlari va xo'jalik ahamiyati shu jumladan ularni shu boradagi o'rganish usullari zarar keltirish ko'lami.*

Kalit so'zlari: *Kapalak, kungaboqar, Janubiy-Sharqiy Farg'ona, makkajo'xori poya parvonasi.*

Tadqiqot hududi agrotsenozlarida parvonasimon kapalaklarning Pyralidae oilasiga mansub kungaboqar parvonasi hamda anor qurti, shuningdek, Crambidae oilasiga mansub makkajo'xori parvonasi hamda tut parvonasi nisbatan keng tarqalgan va asosiy zararkunanda turlar hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, kungaboqar, makkajo'xori hamda tut parvonasining tuxum, qurt, g'umbak va kapalak boqichidagi rivojlanish xususiyatlari o'rganilib, morfologik tuzilish belgilari tavsiflandi.

Kungaboqar parvonasi (*Homoeosoma nebulella* Denis & Schiffermüller, 1775) kapalagining tanasini uzunligi 8-12 mm, qanotlari yozilganda kengligi 17-25 mm ni tashkil etadi. Tuxumi yumaloq, diametri 0,7-0,8 mm bo'lib, kungaboqar o'simligining to'pguliga to'p-to'p qilib qo'yadi. Kungaboqar parvonasi qurtlarining o'lchami 1 mm dan 14 mm ga qadar bo'ladi. Diapauzadagi qurtlarning og'irligi 35-40 mg, uzunligi 9-14 mm. ni tashkil etadi.

Janubiy-Sharqiy Farg'ona sharoitida kungaboqar parvonasining birinchi avlodi murakkabguldoshlar oilasiga mansub begona o'tlarda rivojlanadi va ikkinchi avloddan boshlab kungaboqar o'simligining savatchalariga yoki murakkab gullariga o'tadi. Ushbu zararkunanda tadqiqot hududining kungaboqar yetishtiriladigan barcha dala maydonlarida uchrab, o'simlik hosiliga jiddiy zarar yetkazadi.

Makkajo'xori parvonasining erkak kapalagi to'q sarg'ich-jigarrang, qanotlarini yozganda kengligi 21-26 mm, tanasining uzunligi 11 mm dan 15 mm ga qadar bo'ladi. Urg'ochi kapalaklarning qanotlari och sarg'ish- jigarrang bo'lib, ko'ndalangiga tartibsiz to'lqinsimon jigarrang chiziqlarni ko'rish mumkin. Qanotlarini yozganda kengligi 20 mm dan 30 mm ga qadar, tanasining uzunligi 9,5-13 mm. Qanotlari yig'ilgan holatda ham erkak va urg'ochi kapalaklarni bir-biridan farqlash mumkin. Jumladan, erkak kapalaklarning qorin qismi oxirgi bog'imi qanotlar ostidan nisbatan ingichka va uchli bo'lib ko'rinib turadi.

Makkajo'xori poya parvonasi Quva tumani sharoitida mavsumda 3 avlod berib rivojlanadi. Makkajo'xori poya parvonasi makkajo'xorining erta muddatlarda, ya'ni

bahordan boshlab ekilgan navlarini, kechki muddatlarda (g'alladan keyin) ekilganlaridan ko'ra ozroq zararlaydi. Erta bahorda ekilgan o'simliklarni zararkunandadan himoya qilish uchun 3-4 marta, yozda ikkinchi ekin sifatida ekilganlarni esa 2-3 marta kimyoviy ishlov o'tkazish talab etiladi. Trixogramma (*Tr. pintoi*) parvona tuxumlariga qarshi 67,8%; brakon (*Bracon hebetor*) esa, ochiq holda oziqlanayotgan qurtlarga qarshi 1:15 nisbatgacha 100%, 1:50 nisbatda 54% biologik samaradorlikka ega. So'ta yoki poya ichida himoyalangan qurtlarni esa, 1:19 nisbatda bo'lganda 26,3% zararlaydi.

Janubiy-Sharqiy Farg'ona sharoitida mavsumiy ob-havoga bog'liq holda tut parvonasining 5-6 avlodi rivojlanadi. Parvona kapalaklari aprel oyining birinchi o'n kunligi oxiridan boshlab g'umbaklardan uchib chiqa boshlaydi. Bu paytda kunlik havo harorati o'rtacha +13-15^oS bo'lib, tut daraxtlari kurtaklari bo'rtib barglar yozila boshlagan vaqtga to'g'ri keladi. Kapalaklarning uchib chiqishi 20-25 kun davom etadi. Kapalaklarning yoppasiga uchib chiqishi esa 4-5 kun davom etadi.

Barcha tut daraxtlari, shu jumladan, Shotut daraxti barglarining zararlanishi va vaqtdan oldin to'kilishi, o'sish-rivojlanish jarayonini sustlashtiradi hamda barg va meva hosildorligini kamaytirib, qishgi sovuqlarga chidamliligini pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, ipak qurti uchun o'stiriladigan tut daraxtlarining navbatdan tashqari barg yozish jaryonida qo'shimcha energiya sarfi, yildan-yilga maxsuldorligini kamayib borishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermatov M. Tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis* Walker)ning Farg'ona vodiysida tarqalishi, biologiyasi va ekologik xususiyatlari: Biol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2010. - 120 b.
2. Xo'jaev Sh.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2009., – 73 b.
3. Kungaboqar parvonasi (*Homoeosoma nebulella*)ning bioekologik xususiyatlari
4. Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia nubilalis*) ning bioekologik xususiyatlari
5. Tut parvonasi (*Glyphodes pyloalis*) ning bioekologik xususiyatlari
6. <https://webofscience.help.clarivate.com/en-us/Content/wos-core-collection/wos-core-collection.htm>
7. <https://zootaxa.myspecies.info>